

**ALISHER NAVOIYNING “TUN OQSHOM KELDI-YU KELMAS...”
G‘AZALIDA OSHIQONA VA ORIFONA RUHIYAT UYG‘UNLIGI**

Maxmudjonova Muborak Farxodjon qizi

Xabibullayeva Nafisa Sherali qizi

Namangan davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabalari

Annotatsiya. Millatimiz quyoshi Mir Alisher Navoiy meros qoldirgan har bir bayt ulkan xazina, baytlar silsilasi anglatadigan ma’nolar esa buyuk merosning bugungi kundagi zalvorini belgilaydi. Shoirning har bir g‘azali o‘qilganda, kishiga bir olam ma’no, yangidan o‘qilganda, yana bir olam ma’no va mohiyat o‘z eshiklarini ochadi. Mazkur maqolada ayriliq va hijron o‘tida kuyayotgan oshiqning oqshom mahali chekkan iztiroblari aks etgan “Tun oqshom keldi-yu...” g‘azalidagi ishqiy va irfoniy g‘oyalarning uyg‘unlikda ifodalanishi to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, vahdat ul-vujud, tun, tong, hijron, vasl, oshiqlik, oriflik

Абстрактный. Каждый куплет, оставленный Миром Алишером Навои, солнцем нашей нации, является огромным сокровищем, и смыслы серии куплетов определяют современное значение великого наследия. При прочтении каждой газели поэта перед человеком открывается мир смысла, а при прочтении заново – другой мир смысла и сути. В данной статье говорится о гармоничном выражении романтических и мистических идей в газели «Тун Акшом Келди-ю...», отражающей страдания возлюбленного, сгорающего в пылу разлуки и эмиграции

Ключевые слова: Суфизм, вахдат уль-вуджуд, ночь, утро, хиджран, васл, любовь, мудрость

Annotation. Every couplet left by Mir Alisher Navoi, the pride of our nation, is a great treasure, and the meanings of the couplet determine the present day’s significance of the great legacy. When each ghazal of the poet is read, a lot of meanings can be felt and understood. There is the discussion about the harmonious expression of romantic and mystical ideas in the ghazal “Tun aksham keldi-yu...” which depicts the sufferings of a lover in the hijran

Key words: Sufism, vahdat ul-vujud, night, dawn, hijran, appointment, infatuation, orifianity

KIRISH

Alisher Navoiy va uning g‘azallari xususida gap ketganda, o‘zbek adabiyotining zabardast shoiri Maqsud Shayxzodaning Navoiyga bergan ta’rifi buyuk haqiqat ekanligi eslanadi. Darhaqiqat, Navoiy – “g‘azal mulkingning sultoni”. Shoir g‘azallari botinidagi ma’nolar ochilsa, tunganmas dur-u javohirlar ko‘rinaveradi. Quyida tahlil etiladigan “Tun oqshom keldi-yu kelmas...” g‘azali serma’no, o‘zida har turli tovlanishlarni aks ettiruvchi, tasavvufiy, ishqiy, g‘oyaviy yuksak asar sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Buyuk shoir Alisher Navoiy haqida hozircha birinchi ma'lumot 875-hijriy - 1470-melodiy yilda yozilgan "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn" (ikki saodat bag'ishlaguvchining boshlanishi va ikki dengizning birlashuvi) nomli tarixiy asarda uchraydi. [1:655] Qolaversa, shoirdan keyin yashab o'tgan yuzlab olimlar o'z risolalarida Navoiy va uning ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirishgan. XX asrdagi navoiyshunoslik o'z ko'lamining kengligi va bosib o'tgan yo'lining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Bu davrda A.Fitrat, S.Ayniy, O.Sharafiddinov, V.Mahmudiy, Oybek, Erkin Vohidov, Vohid Zohidov, Izzat Sulton, N.Komilov kabi o'zbek navoiyshunoslari tomonidan tadqiqotlar amalga oshirildi. Mustaqillikdan keyin shoir ijodini o'rganish yangicha ahamiyat kasb eta boshladi. Alisher Navoiyning yigirma tomlik mukammal asarlar to'plami nashr etildi. Bugungi kunda Navoiy ijodi nafaqat, o'zbek, turkiy, balki jahon navoiyshunoslari tomonidan o'rganilmoqda, yosh tadqiqotchilar yangi-yangi tadqiqot ishlari e'lon qilinmoqda.

MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Sakkiz baytdan iborat "Tun oshom keldi-yu..." g'azali hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Mazmuniga ko'ra oshiqona, ya'ni oshiqning hijrondagi iztiroblarini, kechinma-hislarini ifodalaydi. Shu jihatdan uni sharhi hol usulida yozilgan asarlar sirasiga kiritish mumkin. Ammo zohiriy ma'nolari bilan oshiqona bo'lib ko'ringan ushbu g'azalda orifona (tasavvufiy) ma'nolar ham aks etadi, umuman, Alisher Navoiyning aksar g'azallarida zohiriy va botiniy ma'no, "dunyoviy" ishq bilan "ilohiy ishq", boshqacha aytganda, "majoziy" ma'nolar bilan "haqiqiy" ma'no birga qo'shilib, biri ikkinchisini taqozo etib keladi. Ikki ma'nolilik, ikki yo'nalishli tasvir mazkur g'azalga ham xos, shuning uchun sharhi ham ana shu ikki jihatni ochib berishga xizmat qilishi kerak. Navoiy oshiqning hijron aro chekkan iztiroblarini tabiatdagi ajoyib holatlar bilan hamohang tarzda chuqur hissiyot va teran tafakkur bilan yoritib beradi. Oshiqning ayriliqdagi holati – tun, faqat visolgina unga tongni hadya qiladi. Oshiq "tun oqshom" kelgani, lekin "shabiston"ning "sham"i bo'lgan ma'shuqasi kelmaganidan azobda:

Tun oqshom keldi-yu kelmas mening sham'i shabistonim,

Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

Notanish so'zlarga e'tibor qaratsak, "shabiston" – tun, zulmat, "parvona" bo'lsa, o'zini o'tga urib halok qiluvchi hasharotdir. Matla'da hazrat Navoiy ajoyib tasvir yaratgan: oshiqning zulmat ichra kechayotgan hayotiga sham bo'lib, yorug'lik olib kiradigan yori oqshom kelsa-da, kelmaydi. Oshiq orzusi ana shu sham nurlariga o'zini urish edi, lekin hijron azobidan shunday anduhdagi, uning ohlari olamga o't bo'lib yoyilmoqda, jon esa shu o'tda "parvonadek kuyar". Bu – baytning "dunyoviy", oshiqona" sharhi. Uning tasavvufiy ma'nosi esa baytning bunchalar go'zal yaralishi vositasidir. Chunonchi, tun, shom-vahdatga qarama-qarshi kasrat (ko'plik) martabalari, taayyunot pardasi. Oh – ishq g'ulg'ulasining til bilan ifodalab bo'lmaydigan avj lahzasi. Hijron – Haqdan, ilohdan boshqaga yuz o'girish, ko'ngilning vaqtincha o'zga tashvishlar bilan band bo'lishi, parda orqasida qolishi. [2:405] Ana shu ma'nolardan kelib chiqib matla'ning orifona mazmunini

quyidagicha ifodalash mumkin. “Allohdan uzoqlashtiradigan foniy havaslar meni egallab boryapti, kasrat bilan mashg‘ulman, Haqdan boshqalarga e‘tibor qilib undan uzoqda azobdaman, dunyo tashvishlari bilan ovoraman, vahdat, ilohiy fayziyatga erishish g‘ami esa qalbimni o‘rtamoqda...” Navoiy bu misralar Haq nuriga g‘arq bo‘lib, uning jamoli haroratida parvona kabi yonmaguncha Haqqa yetib bo‘lmasligini, solik vujudi batamom yo‘qolib, iloh olamiga qo‘shilib ketishi kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan.

Ne g‘am ko‘rguzsa, ko‘ksun porasi choki giribonim,

Ko‘runmas bo‘lsa, ko‘ksun yorasidin dog‘i pinhonim.

Mazkur bayt matla‘da ifodalangan ma‘noni yana-da boyitadi. “Giribon” so‘zi “yoqa” degan ma‘noni anglatadi. Oshiq yorga shunchalar mushtoqki, yor qancha “g‘am ko‘rguzsa” ham, u yoqasi choklarini yirtib, ko‘ksini ochib kutib oladi. Agar yor ko‘rinmasa, ko‘ksidagi chandiqlar-u yaralar yana pinhonligicha qoladi. “Yoqa yirtish” – tongning otishini anglatuvchi istioradir, chunki yoqa yirtilganda, odamning ko‘kragi ko‘ringan kabi tun pardasi yirtilganda tong namoyon bo‘ladi, ya‘ni ilohiyot jamoli ko‘rina boshlaydi. Navoiyning Samarqandda gadodan sotib olgan baytning birinchi misrasi: “Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokroq”, ya‘ni “Ko‘kragim tongning ko‘ylagidan chokroq. [3:16] Bu yerda subhning pirohani – tong pardasi, yoqaning yirtilishi emas, balki ko‘krakning chokchok bo‘lishiga tashbeh qilingan. Demak, asliyatda, agar yoqalari chokidan yirtilsa, oshiq ko‘ksining o‘zidayoq tong otib ketishi mumkin. Faqat buning uchun yana yetarlicha mehnat, o‘rtanish, azoblanish, yonish kerak. Ikkinchi baytdagi “ko‘ksun”, “g‘am”, ko‘r” so‘zlari takror qo‘llanib, holatga aniqlik berish, ta‘kidlashga xizmat qilgan.

G‘amidin durri maknundek, sirishkim oqti Jayhundek,

Muzayyan qildi gardundek jahonni ashki g‘altonim.

“Muzayyan” – bezakli, “g‘alton” – “yumaloq katta dur”. Bayt sharhini quyidagicha izohlash mumkin: Yor g‘amidan yashirin dur kabi ko‘zyoshlarim Jayhundek oqdi va jahonni gardun kabi bezadi, ya‘ni so‘fiylik yo‘lida ko‘rgan sitamlarim, dard-u azoblarim hayotimni, balki butun bir dunyoni ko‘rkam qildi. E‘tibor berilsa, qofiyadosh so‘zlardan ko‘p foydalanilgani sababli bayt o‘ziga xos ritmda o‘qiladi. Bu esa ta‘did she‘riy san‘atiga asos bo‘ladi. Bundan tashqari tanosub, istiora, tashbeh kabi san‘atlardan mohirona foydalanilgan.

Falak ham to‘ldi kavkabdan, quyosh ham tushti ashhabdan,

Kelib tushmasmu markabdan mening xurshidi rahshonim.

Bu o‘rinda foydalanilgan “kavkab” so‘zi yulduzga, “ashhab” so‘zi, “markab” so‘zi esa ga nisbat beradi. Quyosh “ashhab” dan tushgandan so‘ng osmon hijron tufayli “kavkab”larga to‘lib ketdi, olamlarni yorug‘ qiladigan jonso‘z parivash esa hamon “markab”dan tushgisi kelmaydi. Bu o‘rinda ham ilohiy vaslga intilayotgan solikning iztiroblari o‘zgacha ritmda, tanosub, istiora, ta‘did, mubolag‘a vositasi bilan yuqori darajada ifodalanmoqda.

Jahonni zulmat etti chah, bu zulmat ichra o‘ldum, vah,

Manga bo‘lsang ne Xizri rah etib, ey obi hayvonim.

Yuqoridagi “chah” so‘zi chuqur o‘rani, “rah” so‘zi yo‘l ma‘nosini anglatadi. Baytda o‘xshatish, istiora, tanosub, tazod hamda talmeh, nido san‘atlaridan foydalanilgan. Xizr alayhissalom Qur‘onda nomlari keltirilmagan bo‘lmasa-da, ulamolar nazdida Muso alayhissalomga uch nasihat qilgan “Allohning quli” sanaladi. [4:270] Xalq orasida ham turli mifologik tasavvurlar borki, Xizr alayhissalom “obi hayot”(tiriklik bulog‘i)ga aynan zulmat ichida ega bo‘lgan. Bundan tashqari “xizr” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “yashil” demakdir. Xizr alayhissalom doim yashil to‘n kiyib yurgan deyiladi. Bu xususiyatlar hisobga olinsa, ilohiy yor yodini faromush etib, nafsoniy istaklar, o‘tguvchi hoy-u havaslar bilan zulmat qa‘riga quladim va to‘g‘ri yo‘lni topolmay zorman, qani edi, menga Xizr alayhissalom kabi to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatsang, menga hamroh bo‘lsang va jahonga yashillik, yosharish ato etsang, - deya nido qilayotgan oshiq va orif timsoli gavdalanadi.

Dema ko‘kdin quyosh ketmish, falakka tiyralik yetmish,
Ul oy hajrida tor etmish falakni dudi afg‘onim.

“Dud” so‘zining “tutun” ekanligi anglansa, bu misralarda notanish so‘z uchramaydi. Shoir tinglovchiga yuzlanadi: ko‘kdan quyosh ketgani uchun osmon tiyra bo‘ldi, deb o‘ylamaki, falakni tor va qorong‘u qilgan mening yor hajrida tortgan afg‘onlarim tutuni bo‘ladi. Quyosh, oy, falak so‘zlari birgalikda tanosubni yuzaga keltirgan. Tasavvufiy ma‘nosi mushohada qilinsa, Allohning tajallisiga bo‘lgan zorlik orifning foniy umri mazmunini egallagan, umrida shodlik bo‘ladimi, qayg‘u bo‘ladimi, barchasining mezoni Alloh ishq, Alloh lutfi.

Quyosh qochib yuzin uydi, shafaq o‘tqa tushub kuydi,
Falakka dog‘lar qo‘ydi g‘amingdin so‘zi pinhonim.

Mazkur o‘rinda ham ma‘nosi tinglovchiga mavhum bo‘lgan so‘z yo‘q. Orif ilohning asrorlarini bilishga chog‘lanaveradi, lekin mushkulotlar orasida qoladi, quyosh qochib yuzini uyadi, shafaq o‘tga tushib kuyadi, lekin Alloh yo‘lida chekilgan iztiroblar, oz bo‘lsa-da, sirlardan voqif bo‘lib aytilgan yashirin bittagina so‘z, hatto falakka dog‘lar qo‘ya oladi. Allohning tilsimlari kalitini qo‘lga olgan orif-chi?!

Navoiy kibi hijrondin, bu oqshom o‘ldum afg‘ondin,
G‘amim yo‘q bo‘yla yuz jondin, yetib gar kelsa jononim.

An‘anaviy tarzda g‘azalning maqtasida shoir taxallusi qo‘llangan. “Navoiy kibi hijrondin...” Demak, oshiq - Navoiyning o‘zi. Oshiq bu oqshom afg‘onlari orasida o‘ladi, lekin uning yuz joni bo‘lsa, hammasini berishga tayyor, oshiqda jon g‘ami yo‘q, faqat jononi yetib kelsa. Agar orif Allohning tajallisiga erishsa, hajrdan visolga do‘nsa, uning iztirobda kechgan umri-yu ayriliqda o‘rtangan jonidan ne naf?! Maqsad – komillik. Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, ruh taraqqiy etgani sari u jismga sig‘may qoladi, koinot bilan aloqa bog‘lab, olam asroridan xabar berib, mo‘jizalar ko‘rsata boshlaydi. Ruh va jismdan iborat insonni ilohiy olam bilan chegara jism olami orasidagi chegara deb ataydilar va tongga o‘xshatadilar. Chunki tong tun bilan kun orasidagi chegaradir. Tongdan keyin qorong‘ulik ketib, quyosh porlab chiqqanday, inson ruhi ham asta-sekin jism qorong‘uligi – zulmatini tark etib, musaffo ruh olami, nurlar olamiga talpinmog‘i darkor [5:6]. Kunning

oftobidan bahra olgan inson esa ana shu issiqlik taftini, avvalo, jismida, so‘ng qalbida his qiladi.

XULOSA

Ko‘rinadiki, kutilayotgan tong, aslida, oshiqning o‘zi edi. Agar u zulmatni yengib, o‘z tongini farahli qilsa, albatta, ma‘shuqa keladi. Shuningdek, dunyo g‘amlariga e‘tibor qilmay, ularga yon berib, qalbini Allohning uyiga aylantirgan orifga ham Alloh, albatta, lutf qiladi. Navoiy birgina g‘azalga keng ko‘lamli mavzu va g‘oyani singdira olgan. Uning shoirlik mahorati so‘zlardan o‘z o‘rnida va keragicha foydalanganida, yangi metaforik birikmalar tuzganida, qarama-qarshi va ma‘nodosh, talaffuzdosh so‘zlarni ipga tizganida yaqqol namoyon bo‘ladi. She‘rning ilohiy ma‘nolari ko‘lami nihoyatda kengki, ularni tushunmoq uchun yetarli miqdorda tasavvuf va tariqat haqida ma‘lumotga ega bo‘lish kerak. Biroq har qanday kishi g‘azalni o‘qiganda, estetik zavq oladi, uni o‘zicha talqin qilish va tushunishga harakat qiladi. Navoiyning ulkan xazinasini esa she‘riyatga oshno qalblarni ko‘zini olib, o‘ziga qarataveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matla‘i sa‘dayn. – T.: O‘zbekiston, 2008. 655-b.
2. Mustalahoti urafo, Sayyid Ja‘far Sajjodiy, 405-b.
3. Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar, Vohidov E. 2013. 15-18b.
4. Ilohiynoma, Shayx Farididdin Attor. T.: Musiqa, 2007. 270-b
5. Tasavvuf, Komilov N. Ilmiy risola, kh-davron.uz, 6-b.
6. arxiv.uz